

SOTIOLINGVISTIKA FANINING SHAKLLANISHI VA MANBALARI

*Habibova Sarvinoz Qahramon qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
Sarvinozhabibova1@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsiolingvistika fanining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy manbalari yoritilgan. Maqolada fan sifatida sotsiolingvistikaning XX asrda shakllanganligi, uning asoschisi bo'lgan olimlar, shuningdek, til va jamiyat o'rtaсидаги о'заро munosabatlarni o'rganishda foydalaniladigan asosiy ilmiy yo'nalishlar haqida ma'lumot berilgan. Tilshunoslik, sotsiologiya, antropologiya kabi fanlarning sotsiolingvistikaga ta'siri ham tahlil qilingan. Maqola sotsiolingvistikaning nazariy va amaliy ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Sotsiolingvistika, til va jamiyat, tilshunoslik, ijtimoiy tilshunoslik, til variativligi, til o'zgarishi, til siyosati, antropologiya, sotsiologiya, dialektologiya, til rejalashtirish, madaniy kontekstda til.

SOSYOLİNGÜİSTİĞİN OLUŞUMU VE KAYNAKLARI

*Habibova Sarvinoz Kahraman kizi,
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi*

Özet. Bu makalede sosyodilbilim disiplininin oluşumu, gelişim evreleri ve temel kaynakları ele alınmaktadır. Makalede sosyolinguistik biliminin 20. yüzyılda bir bilim olarak oluşumu, kurucuları, dil-toplum ilişkisinin incelenmesinde kullanılan başlıca bilimsel yönelimler hakkında bilgi verilmektedir. Dilbilim, sosyoloji ve antropoloji gibi disiplinlerin sosyodilbilim üzerindeki etkisi de incelenmiştir. Makalenin amacı sosyodilbilimin teorik ve pratik önemini ortaya koymaktır.

Anahtar kelimeler. Sosyodilbilim, dil ve toplum, dilbilim, sosyodilbilim, dil çeşitliliği, dil değişimi, dil politikası, antropoloji, sosyoloji, lehçebilim, dil planlaması, kültürel bağlamda dil.

СТАНОВЛЕНИЕ И ИСТОКИ СОЦИОЛИНГВИСТИКИ

*Хабибова Сарвиноз Каҳрамон кызы,
студентка Узбекско-Финского педагогического института*

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование и развитие социолингвистики как самостоятельной научной дисциплины. Освещены этапы становления науки, вклад ведущих учёных XX века, а также основные источники и направления исследований. Особое внимание уделено взаимосвязи языка и общества, а также влиянию таких дисциплин, как лингвистика, социология и антропология, на становление социолингвистики. Статья подчёркивает теоретическое и практическое значение социолингвистики в современном научном пространстве.

Ключевые слова. Социолингвистика, язык и общество, лингвистика, социальная лингвистика, языковое разнообразие, языковые изменения, антропология, социология, диалектология, языковое планирование, культурный контекст языка.

FORMATION AND SOURCES OF SOCIOLINGUISTICS

*Khabibova Sarvinoz Kahramon kizi,
student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Annotation. This article explores the formation and development of sociolinguistics as an independent scientific discipline. It outlines the historical stages of the field's emergence, highlights the contributions of key 20th-century scholars, and discusses the main sources and areas of research. Special attention is given to the relationship between language and society, as well as the influence of disciplines such as linguistics, sociology, and anthropology on the evolution of sociolinguistics. The article emphasizes the theoretical and practical significance of sociolinguistics in the modern academic context.

Keywords. Sociolinguistics, language and society, linguistics, social linguistics, language variation, language change, language policy, anthropology, sociology, dialectology, language planning, cultural context of languagephra-seology.

Til insoniyat jamiyatining eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. U orqali odamlar o‘zaro aloqa qiladi, fikr almashadi va jamiyatda faoliyat yuritadi. Tilshunoslik fanida turli yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ularidan biri – sotsiolingvistika – til va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi [4,22.]. Til va jamiyat munosabatlari uzviy bog‘liq. Jamiyat rivojlanib borgani sari til ham taraqqiy etaveradi. Tilning paydo bo‘lish tarixi insoniyatning shakllanish tarixi kabi qadim zamonalarga borib taqaladi. Til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro uzviy munosabatini sotsiolingvistika fani o‘rganadi. Tilning boshqa sohalar bilan bog‘liq, jumladan, falsafa, etnografiya, psixologiya kabi jihatlarini o‘rganishda ham sotsiolingvistika fani qo‘llaniladi.

Sotsiolingvistika quyidagi masalalarni o‘rganadi:

- 1) jamiyat va til o‘zaro bog‘liq, mutanosib tarixiy jarayon, hodisadir;
- 2) jamiyat taraqqiy eta borgan sari tilning ijtimoiy vazifalari ham takomillashib boradi;
- 3) adabiy tilning, shevalarning, lug‘at boyligi kengayadi, ortib boradi;
- 4) yashash muhiti yaqin, turmush tarzi o‘xshash hamda o‘zaro iqtisodiy munosabatlari shakllangan xalqlarning tillari bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi [4,23.].

Sotsiolingvistika jamiyatdagi ijtimoiy sharoitlarda til faoliyat olib boradigan va rivojlanadigan jabhalarni o‘rganadi. Ijtimoiy sharoitlarga jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy kelib chiqishi, tuzilishi, yoshi, ijtimoiy mavqe, madaniyat va ta’limni bilish darajasi, yashash joyi va so‘zlayotgan nutqi misol bo‘la oladi. Xususan, ushbu fan tadqiqotchisi so‘zlovchilar o‘z nutqida u yoki bu variantni qanchalik ko‘p ishlatishini va bu qanday ijtimoiy parametrlarga (ijtimoiy sinf, ma’lumot, jins, yosh, aloqa holati) bog‘liqligini aniqlashi kerak. Ijtimoiy tilshunoslik, bizning fikrimizcha, til va uning ijtimoiy hamda madaniy kontekstlaridagi munosabatlarida vujudga keladigan masalalarni o‘rganadigan fandir. Buning uchun u ma’lum bir jamiyat a’zolarining turli xil kodlar va iboralar almashinuvini hamda og‘zaki nutqda qanday suhbatlashishlarini analiz qilib, ushbu real vaziyatlarni o‘rganadi. Sotsiolingvistika, ya’ni ijtimoiy tilshunoslikning boshqa fanlardan farqli jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini anglash uchun ushbu fanning kelib chiqishi, obyekti, predmeti va olimlarning bu fan to‘g‘risidagi turli xil qarashlarini ko‘rib chiqishimiz kerak [7,23.].

“Sotsiolingvistika” atamasini birinchi marta 1952-yilda amerikalik jamiyatshunos German Karri qo‘llagan. Biroq, bu tilning ijtimoiy tabiatini haqidagi fan 1950-yillarning boshlarida paydo bo‘lgan degani emas. Sotsiolingvistikating tarixi yana ham uzoqqa borib taqaladi. XX asrning birinchi yarmidagi taniqli rus olimlari I.A.Boduen de Kurtene, E.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, A.M.Selischev, G.O.Vinokur, fransuz olimlari F.Bruno, A.Meye, P.Lafarg, M.Koen, shveytsariyalik olimlar Sh.Balli va A.Seshe, belgiyalik J.Vandries, chexoslovak B.Gavranek, A.Matesius va boshqalarga hozirgi sotsiolingvistika borasida bir qator g‘oyalar tegishli.

Tilshunoslik fani doirasida sotsiolingvistika bir necha xil nomlarga ega. Ayni shu nuqtayi nazaridan til sotsiologiyasi, sotsiologik lingvistika, sotsiologik tilshunoslik, lingvistik sotsiologiya, lingvososiologiya, sotsiolingvistika, ijtimoiy lingvistika atamalari kirib keldi. Ushbu atamalar bir-biridan ma’lum xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

Jahon tilshunosligida olimlar tomonidan sotsiolingvistika haqida berilgan ta'riflar turlicha. Jumladan, chet el olimlaridan biri Devid Kristel quyidagicha ta'riflaydi: Sotsiolingvistika til va jamiyat o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. U ijtimoiy guruhlarning lingistik o'ziga xosligini, tilga bo'lgan ijtimoiy munosabatni, tilning standart va nostandard shakllarini, milliy tildan foydalanish qonuniyatlarini va ehtiyojlarini, tilning ijtimoiy turlari va darajalarini, ikki tilli va ko'p tillilikning ijtimoiy asoslarini o'rganadi". Yana bir manbada esa shunday izohlanadi.

"Sotsiolingvistika empirik fandir, chunki u kundalik hayotda ko'rish mumkin bo'lgan faktlarga asoslanadi. Alomatlarni to'plash va shakllantirishda bu nazariy fan deb ham aytildi. Sotsiolingvistika insonning turli vaziyatlarda til qoidalaridan to'g'ri foydalanish qobiliyatini tushuntirishga harakat qiladi". Rus manbalaridan birida "sotsiolingvistika inson suhbatlashayotgan vaqtida tilning vazifalarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Bir qator ijtimoiy guruhlarda turmush o'rtoqning ismini qo'llamaslik, Yaponiyada suhbatdoshlar suhbat vaqtida bir-birining ijtimoiy sinfini qo'llash shartligi, rus va ingliz suhbatida bunday holatning uchramasligi sotsiolingvistika doirasiga kiradi". Bu kabi ijtimoiy holatlar o'zbek mentalitetiga ham xos xususiyat hisoblanadi. Rus olimlari sotsiolingvistika insonlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, ta'lim olish darajasi va xarakteri, madaniyat darajasidan kelib chiqib, so'zlovchi til belgilardan qay tarzda foydalanishiga – bir xillilikka yoki har xillilikka – urg'u beradi, - deb ta'kidlaydi.

Sotsiolingvistika turli fanlar bilan bog'liq bo'lib, uning manbalari quyidagilardan iborat:

- Tilshunoslik – fonetika, morfologiya, sintaksis va semantika sotsiolingvistik tahlillarning asosini tashkil etadi.
 - Sotsiologiya – jamiyat tuzilishi, ijtimoiy guruhlar va ularning tilga bo'lgan ta'siri sotsiologik yondashuv orqali o'rganiladi.
 - Antropologiya – madaniy kontekstda tilning tutgan o'rni va uning qadriyatlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi.
 - Psixolingvistika – til va tafakkur o'zaro bog'liqligi orqali nutq faoliyatining psixologik jihatlari o'rganiladi. Shuningdek, og'zaki va yozma nutq namunalarini o'rganish, dialektologik kuzatuvlar, so'rovnama va intervylular ham bu fan uchun muhim manbalaridir.

Til madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi. Til madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Olimlarning quyidagi fikrlari bu mulohazalarimizni asoslaydi: "Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o'rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo'yuvchi vosita bo'lishiga yordam beradi. Til - uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko'rsatadi. Xalqning o'ziga xos asosiy xususiyati bo'lgan tilga "ichki" va "tashqi" jihatdan yondashish mumkin. Tilga "ichki" jihatdan yondashilganda, u etnik integratsiyaning bosh omili sifatida namoyon bo'lsa, "tashqi" jihatdan yondashilganda, u xalqning etnik farqlarini ko'rsatadi.[6,11-25.] Bu ikki qarama-garshi funksiyani o'zida dialektik birlashtirgan til bir tomonidan xalqning o'z-o'zini saqlash vositasi, ikkinchi tomonidan uni "o'ziniki" va "begona"ga ajratish vositasi bo'lib xizmat qiladi".

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash joizki, sotsiolingvistika jamiyat va til munosabatlarida muhim o'rinni tutadi. Fanning maqsadi til funksiyalarining bajarilishini, har xil qatlam doirasida ijtimoiy guruhning kelib chiqishi, yoshi, mavqeyi va ta'lim darajasiga qarab nutqda qanday variantlarni qo'llash va bularning barchasini boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Sotsiolingvistika bugungi kunda tilshunoslikning muhim va keng qamrovli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning shakllanishida nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unlashgan bo'lib, tilning ijtimoiy kontekstdagi roli chuqur tabhlil etiladi. Ushbu fan yordamida jamiyatdagi til hodisalari, ijtimoiy tafovutlar, tilning obro'si va siyosiy aspektlari o'rganiladi. Shuningdek, u til siyosati yuritish va ko'p tillilik muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Elova D., Safarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent, 2022. – B. 7-27.
2. Nurmonov A. O‘zbek tilining sotsiolingvistik jihatlari. – Toshkent, 2008. Milliy ensiklopediya. – B. 42.
3. Sultanmurodova M. Sotsiolingvistika fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent, 2019. – B.12-38.
4. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 2007. – 177 b.
5. Xojiyev A. Til va jamiyat. – Toshkent, 2007. – B. 180.
6. Yusupova.O.S. Sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2024. – B.11-25.
7. Запорожец М.Н. Социолингвистика. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2014. – 139 с.